

---

## XUSHXABAR



### Xushxabar

Respublikamizda sport sohasiga berilayotgan e'tibor bois, ushbu sohaning barcha turlari Respublikamizning eng chekka hududlarida ham rivoj topib bormoqda. Sportning boks turi esa, allaqachon yoshlarning eng sevimli sohasiga aylanib ulgurgan.

Hazrati Ali mahalla fuqarolar yig'ini raisi Subhonali Nishonovning bizga xabar berishicha, mazkur mahallaning yosh bokschisi viloyat miqyosidagi musobaqalarda ishtirok etib, faxrli uchinchi o'rinni egallagan va bu xushxabarni Sizga ulashishga ahd qildik. Farg'ona shahrida boks bo'yicha o'tkazilgan sport musobaqlarida 5-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi A. Turg'unboyev faxri 3-o'rinni egallagan.

Yosh bokschiga musobaqa tashkilotchilari tomonidan qimmatbaho sovg'alar va medal taqdim etildi. Yosh bokschini barcha tuman ahli nomidan tabriklaymiz va ushbu yutuqlari bardavom bo'lishini tilab qolamiz!

### So'x tumani hokimligi Axborot xizmati



#### [Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-02-25 14:13:42